

‘Sof-ilm’ platformasi va Mentor o’rtasidagi SHARTNOMA

1. Tomonlar

Ushbu shartnomada ‘**Sof-Ilm’ onlayn ta’lim platformasi** (keyingi o’rinlarda ‘**Platforma**’) va _____ (keyingi o’rinlarda ‘**Mentor**’) o’rtasida tuziladi. Mentor yakka tartibdagi tadbirkorlik subyekti yoki yuridik shaxs sifatida ushbu shartnomani imzolashi mumkin.

2. Shartnomaning predmeti

- 2.1. Ushbu shartnomada Mentorning **Sof-Ilm** platformasida o’zining **onlayn kurslarini yaratishi, jonli darslar o’tishi va ta’lim xizmatlarini ko’rsatishi** uchun huquq va majburiyatlarini belgilaydi.
- 2.2. Mentor mustaqil ravishda **ta’lim dasturlarini ishlab chiqish, materiallar tayyorlash, jonli darslar olib borish**, hamda **o’quvchilarga maslahat berish** huquqiga ega.
- 2.3. Platforma Mentor uchun texnik va marketing imkoniyatlarini taqdim etadi, lekin Mentor tomonidan tayyorlangan kontentga (kursga) to’g’ridan-to’g’ri aralashmaydi. Tuzilayotgan kontent samarali bo’lishi uchun Platforma o’zining tavsiyalarini berishi mumkin.
- 2.4. Agar Mentor yaratgan kontentini mualliflik huquqini Platformaga sotmoqchi bo’lsa, Platforma kontent dasturini tasdiqlagandan so’ng mentor yaratishga kirishadi. Kurs to’liq tugatmasdan turib Platforma mualliflik huquqini o’z zimmasiga olmaydi.

3. Tomonlarning huquq va majburiyatları

3.1. Mentor quyidagi huquqlarga ega:

- 3.1.1. Kurslarni mustaqil ravishda ishlab chiqish va platformaga joylashtirish;
- 3.1.2. Platformada o’z kursini yoki jonli darslarini sotish va daromad olish;
- 3.1.3. Kurs materiallari bo’yicha mualliflik huquqiga ega bo’lish. Lekin mualliflik huquqi Platformaga sotiladigan kurslar (kontent) bundan mustasno;
- 3.1.4. O’quvchilar bilan bevosita yoki platforma orqali aloqa qilish va ularga maslahat berish;
- 3.1.5. O’zining ta’lim xizmatlarini reklama qilish, lekin platforma qoidalariga zid bo’lmagan tarzda;
- 3.1.6. Kurs yoki jonli darslar narxini belgilashda platforma bilan kelishish asosida qatnashish;
- 3.1.7. Platforma xizmatlaridan foydalanishda qonuniy va shaffof shartlarda ishlash.

3.2. Mentor quyidagilarga rioya qilish majburiyatini oladi:

- 3.2.1. Kurslar va darslar **O’zbekiston Respublikasi qonunchiligiga mos bo’lishi, jumladan, ta’lim sifatiga qo’yiladigan talablarni buzmasligi**;
- 3.2.2. Platformaning **axloqiy va etika qoidalariga amal qilish**;
- 3.2.3. Platformada kurs joylash jarayonida O’zbekiston Respublikasi siyosatiga qarshi yoki uning zarariga bo’lgan turli mavzularni qamrab olgan darslarni, xususan,

davlat xavfsizligiga tahdid soluvchi materiallar; ekstremistik va terroristik mazmundagi materiallar; milliy, irqiy, etnik yoki diniy nafrat uyg‘otuvchi materiallar; pornografik va axloqiy me’yorlarga zid materiallar; giyohvand moddalar va noqonuniy mahsulotlarni targ‘ib qiluvchi materiallar; firibgarlik va noqonuniy moliyaviy faoliyatni targ‘ib qiluvchi materiallar; zo‘ravonlik va jinoyatchilikni targ‘ib qiluvchi materiallar; yolg‘on axborot (feyk yangiliklar) va obro‘sizlantiruvchi materiallar; mualliflik huquqlarini buzuvchi materiallar; noqonuniy quroq va portlovchi moddalarni targ‘ib qiluvchi materiallar yuklamasligi, umuman, Respublika qonunchiliga zid bo’lgan kurslarni Platformada yuklamasligi va jonli darsda o’tmasligi shart.

3.2.4. Agar yuqorida sanab o’tilgan (ta’qiqlangan) yoki noqonuniy deb topilgan materialarni Platformaga joylasa yoki jonli dars o’tish jarayonida talabalarga ma’lum qilsa (yoki dars o’tsa), javobgarlik mas’uliyati Platforma zimmasidan soqit bo’ladi va bu uchun Mentor to’liq javobgarlikni o’z zimmasiga oladi.

3.2.5. O’quvchilarga aniq, to’g’ri va sifatlari ma’lumot yetkazish;

3.2.6. **O’zining intellektual mulkiga oid huquqlarni** platformaga uzatmasdan, lekin platformaga taqdim etilgan materiallar platformada foydalaniishi mumkinligini tan olish;

3.2.7. Mentor birovning nomi ostida chop etilgan ma’lumotni (audio, video, rasm va yozma ko’rinishda) platformaga joylashtirmoqchi bo’lsa, mualliflik huquqini himoyalagan holda material muallifidan yozma ravishda, yoki elektron xat orqali, yoki muallif tasdiq qilgan biron hujjat orqali ruxsat olgan bo’lishi lozim. Hamda muallif nomini material ostida ko’rsatib o’tishi shart. Platforma mentoring mualliflik huquqini buzganligi uchun javobgar bo’lmaydi. Javobgarlik mentoring zimmasida qoladi;

3.2.8. Platforma orqali kelgan to’lovlarni belgilangan tartibda qabul qilish va soliqlarga oid majburiyatlarini bajarish (agar yakka tartibdagi tadbirkor yoki yuridik shaxs bo’lsa, **Soliq qo’mitasida ro’yxatdan o’tgan bo’lishi shart**);

3.2.9. O’quvchilarning shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish va uchinchi shaxslarga taqdim etmaslik;

3.2.10. O’quvchilarga nisbatan adolatli va professional munosabatda bo’lish.

3.3. Platformaning huquq va majburiyatları

3.3.1. Mentor uchun kurs yaratish va jonli darslar o’tish imkoniyatini taqdim etish;

3.3.2. Mentor uchun texnik va marketing jihatdan **qo’llab-quvvatlash xizmatlarini** ko’rsatish;

3.3.3. Mentor tomonidan taqdim etilgan materialarni **qonuniylik nuqtayi nazaridan tahlil qilish huquqi**, agar qonunbuzarlik aniqlansa, platformada chop etilishiga ruxsat bermaslik huquqi bo’ladi. Agar platformadan yashirinchha noqonuniy kurslarni chop etsa yoki shunga o’xshash noqonuniy ishlarga yo’l qo’ysa to’liq javobgarlik Mentor zimmasida bo’ladi;

3.3.4. Mentoring kurslarini platformada targ‘ib qilish bo’yicha maslahatlar berish;

3.3.5. Agar o’quvchilar Platforma tomonidan jalb qilingan bo’lsa, Mentor va o’quvchilar o’rtasidagi nizolarni hal qilishda vositachi bo’lishi mumkin. Agar o’quvchi mentordan norozi bo’lib, uni almashtirib berishni talab qilsa, platforma

o'quvchining talabini qondirishga huquqi bo'ladi va mentorni almashtirib beradi;

3.3.6. Agar o'quvchilar Mentor tomonidan jalg qilingan bo'lsa nizolarni hal qilish uchun vositachi bo'lishga majbur emas.

3.3.7. Mentoring shaxsiy ma'lumotlarini uchinchi shaxslarga taqdim etmaslik.

4. To'lov va daromad taqsimoti

- 4.1. Mentor platformada kurs sotish va jonli darslarni o'tish orqali daromad oladi.
- 4.2. Daromad taqsimoti Mentoring profilida namoyish etiladi.
- 4.3. Platforma tomonidan topilgan talaba uchun Mentorga to'lov o'tkazilgan darslar soniga qarab belgilanadi. Har bir darsning summasi va vaqtin menzili bilan kelishilganidan keyin platformada kiritiladi.
- 4.4. Mentor o'zi topgan talabalarga dars berishida (platforma imkoniyatlaridan foydalanganligi uchun) har bir talabasi uchun Platformaga oldindan to'lov qiladi. To'lov miqdori veb saytda e'lon qilinadi yoki ikki tomon o'zaro kelishib Mentor profilida qayd etiladi.
- 4.5. Affiliate dasturi - ma'lum bir kurslarda joriy bo'ladi. Affiliate dasturi bo'yicha Mentor bilan o'zaro kelishuv foizlarda Mentor profilida ko'rsatiladi.
- 4.6. Mentor bilan Platforma ulushlar taqsimotini kelishgandan keyin Platforma admini tomonidan kiritiladi.
- 4.7. To'lov Mentoring bank hisob raqamiga har yangi oyning 15-kuniga qadar o'tkaziladi.
- 4.8. Mentoring soliqlarga oid majburiyatlar o'z zimmasida bo'lib, agar u tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, tegishli soliqlarni to'lashi shart.
- 4.9. Mentor kurs muallifligini Platformaga sotishdan oldin kursning narxi kelishiladi. Kelishilgan kurs oxirigacha tayyor bo'lmasdan turib Mentor uchun hech bir to'lov qilinmaydi. Kelishilgan kurs platforma tomonidan qabul qilingach Mentorga kelishilgan to'lov o'tkaziladi.

5. Shartnomani bekor qilish

- 5.1. Shartnoma quyidagi holatlarda bekor qilinishi mumkin:
 - 5.1.1. Mentor yoki Platforma 30 kun oldin yozma ravishda ogohlantirish bilan shartnomani bekor qilishi mumkin;
 - 5.1.2. Agar Mentor platformaning qoidalarini yoki qonunlarini buzsa, shartnoma **bir tomonlama bekor qilinishi** mumkin;
 - 5.1.3. Mentor faol bo'lmasa va 6 oy davomida hech qanday kurs yoki jonli dars o'tmagan bo'lsa, platforma shartnomani bekor qilish huquqiga ega.

6. Fors-major holatlari

- 6.1. Fors-major holatlar (tabiiy ofatlar, texnik nosozliklar, urush, qonunchilikdagi o'zgarishlar va h.k.) tufayli xizmatlar vaqtincha to'xtatilsa, hech bir tomon javobgar bo'lmaydi.
- 6.2. Fors-major holatlar tugagandan so'ng, tomonlar faoliyatni tiklash bo'yicha kelishib oladi.
- 6.3. Agar fors-major holati **3 oydan ortiq davom etsa**, har ikki tomon shartnomani bekor qilish huquqiga ega bo'ladi.

7. Nizolarni hal etish tartibi

- 7.1. Ushbu shartnomaga oid nizolar, kelishmovchiliklar yuzaga kelgan taqdirda, tomonlar muammoni **muzokaralar orqali hal qilishga harakat qiladi**.
- 7.2. Agar tomonlar kelisha olmasa, nizo **O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi muvofiq sud tartibida hal etiladi**.

8. Yakuniy qoidalar

- 8.1. Ushbu shartnoma ikki nusxada tuziladi va tomonlar imzolagan kundan boshlab kuchga kiradi.
- 8.2. Shartnomaga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish faqat yozma ravishda va tomonlarning roziligi bilan amalga oshiriladi.